



SHAHRISABZ TUMANNING EKOTURISTIK SALOHIYATI VA IMKONIYATLARI

O'zMU, Magistr., Chorshanbiyeva Mahliyo Nuraliyevna+998974495404 e-mail: mahliyonurali@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shahrisabz tumanining ekoturistik salohiyati, tabiiy-geografik xususiyatlari hamda hududdagi asosiy ekoturistik obyektlarning joylashuvi tahlil qilinadi. Xususan, tog'li hududlarda joylashgan Miraki, Hisorak suv ombori, G'elon qishlog'i, Sarchashma qishlog'i, Ko'l qishlog'i hamda Suvtushar sharsharasi kabi maskanlarning tabiiy va rekreatsion imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, hududda amalga oshirilayotgan turizm infratuzilmasini rivojlantirish loyihalari va ularning iqtisodiy ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Shahrisabz tumani, ekoturizm, tog'li hududlar, tabiiy resurslar, rekreatsiya, Hisorak suv ombori, G'elon qishlog'i, Suvtushar sharsharasi, turizm infratuzilmasi, barqaror rivojlanish.

Аннотация: В данной статье рассматривается экотуристический потенциал Шахрисабзский район, его природно-географические особенности и размещение основных экотуристических объектов. Особое внимание уделено таким объектам, как Мираки, Хисаракское водохранилище, Гелон, Сарчашма, Кёл и водопад Сувтушар. Также анализируются проекты развития туристической инфраструктуры и их экономическое значение для региона.

Ключевые слова: Шахрисабзский район, экотуризм, горные территории, природные ресурсы, рекреация, Хисаракское водохранилище, Гелон, Сувтушар, туристическая инфраструктура, устойчивое развитие.

Annotation: This article analyzes the ecotourism potential of Shahrisabz district, its natural and geographical characteristics, and the distribution of major ecotourism sites. Particular attention is given to destinations such as Miraki, Hisorak Reservoir, Gelon village, Sarchashma village, Kol village, and Suvtushar Waterfall. The study also highlights ongoing tourism infrastructure development projects and their economic significance for the region.





Keywords: Shahrisabz district, ecotourism, mountainous areas, natural resources, recreation, Hisorak Reservoir, Gelon village, Suvtushar Waterfall, tourism infrastructure, sustainable development.

Shahrisabz tumani turistik ya'ni ekoturistik obyektlarga boy hududlardan hisoblanadi. Shahrisabz tumani go'zal tabiat manzaralari, o'ziga xos relyef shakli, nodir tarixiy obidalar, tabiiy diqqatga sazovor joylar va qo'riqlanadigan tabiat yodgorliklariga ega ajoyib go'sha hisoblanadi. Tumanda turizmning deyarli barcha turlarini shakllantirish mumkin. Chunki hudud boy resurs imkoniyatiga ega. Shahrisabz tumanida joylashgan ekoturistik obyektlarning tarqalishiga ahamiyat beradigan bo'lsak, quyidagi qonuniyatni anglash mumkin. Shahrisabz tumani hududida ekoturistik obyektlarning tarqalishi o'ziga xos tabiiy-geografik xususiyatga ega hisoblanadi.

Tumanda ekoturistik obyektlarning joylashuv xususiyati o'ziga xos bo'lib, ular asosan dengiz sathidan 1000 metr va undan baland bo'lgan tumanni sharqiy, shimoliy-sharqiy qismini egallagan tog' oldi va tog'li hududlarida joylashgan. Umuman olganda tumandagi ekoturistik obyektlarning 89% dengiz sathidan 1000 metr va undan balandda joylashganligi alohida ahamiyatga egadir[2].

O'zbekiston Respublikasi Davlat rahbarining 2023-yil 28-noyabrdagi qarori doirasida viloyatning tog'li hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Xorijiy ekspert va investorlarni jalb qilgan holda Miraki, Amir Temur, Uloch va Polmon mahallalarida 240 gektar maydonda qiymati 400 million dollarlik 117 loyiha amalga oshirilmoqda. Ular 1700 ga yaqin kishini doimiy ish bilan ta'minlashi kutilmoqda[1].

Miraki dam olish maskani Qashqadaryo viloyatidagi eng mashhur dam olish sanatoriyalaridan biri hisoblanadi. U yer [1993-yildan](#) buyon o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Sanatoriya maydoni 20.5 gektarni tashkil etadi. Bu yerda iqlimning yaxshiligi va havoning tozaligi sababli ham doimiy gavjum. Dam olish maskani zamonaviy tibbiy asbob uskunalari bilan jihozlangan. U yerda shuningdek, kinoteatr, sauna, bilyard xonalari, fitobar va [choyxona](#) ham mavjud. Dam olish maskanida davolanuvchilarning vaqtini maroqli o'tkazish uchun Munavvar vodiysi,

“Shahrisabz” turistik markazi Shahrisabz shahridan 20 km sharqda joylashgan bo'lib Shahrisabz shahriga kelgan sayyohlarni etiborini tortishi tabiiy holdir.





“Shahrisabz” ekoturistik markazi mehmonhonalari(masofaviy zondlash orqali tayyorlandi)

Shahrisabz tumanida, Miraki shaharchasi yaqinida joylashgan **Hisorak suv ombori** yuqori ekoturistik salohiyatga ega maskandir. Tog‘li hududda joylashgani, atrofining o‘t bilan qoplanganligi va salqin iqlimi sababli u dam olish hududi sifatida mashhur. 138 metr balandlikdagi tosh-tuproqli to‘g‘oni, 4,2 km² suv yuzasi va go‘zal manzara sayyohlarni jalb qiladi. Shahrisabzdan 35 km uzoqlikda, Hisor qo‘riqxonasi yaqinida joylashgan. Tabiat qo‘ynida dam olish, tog‘ yonbag‘irlarida sayr qilish va yozning issiq kunlarida salqin joy qidiruvchilar uchun qulay. Hisorak yirik gidrotexnika inshooti [Qashqadaryoning](#) irmog‘i bo‘lgan [Oqsuv daryosi](#) o‘zanida barpo etilgan. Hisorak suv ombori qurilishi 1983-yilda boshlanib 1988-yillarda yakunlangan[3; 180-b.].

Shahrisabz tumanining Miraki qishlog‘iga kelgan sayyoh bu yerning tabiat go‘zalliklaridan hayratga tushadi. Ikki tomondan Hisor tog‘ tizmasining purviqor qoyalari bilan o‘ralgan bu go‘shaning tepa qismida “Hisorak” suv ombori joylashgan. Mahallaning bir yonida shu suv ombordan boshlanajak “Oqdaryo” daryosi hayqirib oqsa, bir yonda sokinlikni xo‘sh ko‘radigan “Qoradaryo” mavjlanadi. Mirakida o‘nlab buloqlar, ariq va kanallar bor[5].

Shahrisabz tumaniga qarashli Hisor tog‘ tizmasidagi baland, viqorli tog‘lar bag‘rida **G‘elon qishlog‘i** joylashgan. Qariyb 2000 yillik tarixga ega G‘elon qishlog‘i



Shahrisabz tumani markazidan 90 km (mavsumga qarab 2-3 soatlik yo‘l) olis masofaga ega[5].

Shahrisabzda «G‘elon» turistik-rekreatsion zonasi avval ko‘zda tutilganidan kattaroq - 2,9 ming gektar maydonda quriladi[4].

G‘elon qishlog‘i va atrof-tabiati - tabiiy go‘zallik va barqaror ekoturizm salohiyati shundan iboratki, G‘elon qishlog‘i Hissor tog‘ tizmasining baland joylarida joylashgan bo‘lib, uning tabiati hozircha keng ochilmagan, bu esa sayyohlarga tasarruf etilmagan tog‘ landshaftlarini kuzatish va tabiat bilan bevosita bog‘lanish imkonini beradi. Shu bois Ko‘l, Sarchashma kabi qishloqlar bilan birgalikda G‘elon ham O‘zbekistonning tabiiy go‘zalliklarini o‘rganish uchun mos.

G‘elon kabi tabiiy hududlar ekoturizm uchun juda muhim, chunki u yerda; tabiiy landshaftlar saqlangan, mahalliy an‘analar bilan bog‘liq madaniy-etnografik elementlar mavjud, sayyohlar piyoda yurishlar va tabiat ekskursiyalari orqali ekologik ongini oshirishlari mumkin. Bu ekoturizm shaklini — barqaror rivojlanishga xizmat qiladi va mahalliy aholiga daromad keltiradi[4].

Sarchashma - [Shahrisabz](#) tumanidagi tog‘li hududda joylashgan qishloq. Sarchashma qishlog‘i hududida ko‘plab muqaddas ziyoratgohlar mavjud bo‘lib, ular mahalliy aholi va atrofdagi hududlardan kelgan ziyoratchilar uchun diniy va ma‘naviy markaz hisoblanadi. Bu ziyoratgohlar orasida Xoja Mehtar Yaldoi Samarqandiy, Mazori Kabudpash, Bibi Zebo, Mazori Darun, “Childuxtaron”, Mazori Tarnov, Mazori Sirzor, Xoja Qo‘chqor, Xoja Zulobiy, Xojaubbon va Chillamazor kabi joylar bor. Ushbu qadamjolar asrlar davomida ziyoratchilarning e‘tibor markazida bo‘lib, mahalliy madaniyatning diniy an‘analarini aks ettiradi. Ziyoratgohlarning aksariyati qadimiy tarixga ega bo‘lib, ular atrofdagi tabiat bilan uyg‘unlashib, qishloqning o‘ziga xos muhitini shakllantiradi[5].

An‘anaviy etnik O‘zbekistonni ko‘rish, o‘zbek xalqining o‘ziga xos madaniyati va tarixini ko‘rish uchun Shahrisabz – Hissorak suv ombori – Sarchashma qishlog‘i bo‘ylab sayohatni amalga oshirish juda mos keladi. Turistlarni qadimiy tarix, nodir tarixiy obidalar va tabiiy diqqatga sazovor joylar olamiga singdiruvchi noyob hududdir.

Shahrisabz tumanida turizmni yanada rivojlantirish bilan bog‘liq keng ko‘lamli ishlar doirasida hududdagi Hissorak, G‘elon, Sarchashma kabi tog‘li qishloqlarga eltuvchi yo‘llar anchagina obod qilinmoqda.






Ko‘l qishlog‘i—Shahrisabz tuman markazidan 90 kilometr uzoqlikda joylashgan. Qishloqda 1500 dan ortiq aholi istiqomat qiladi. Qishloqda 4 oy havo issiq bo‘ladi, qolgan vaqt yomg‘ir, qor yog‘adi. Qishloq to‘rt tarafdin tog‘lar bilan o‘ralgan. Qishloq aholisining asosiy daromadi kartoshka yetishtirib sotishdan keladi. Bundan tashqari chorvachilik va tog‘ etaklaridagi qir-adirlarda dehqonchilik qilib kun kechirishadi. Ko‘l qishlog‘i Hojiak va Hazrati Sulton tog‘lari o‘rtasida joylashgan bo‘lib, ilgari uning joyida ko‘l bo‘lgan. Shu sabab qishloq nomi Ko‘l deb nomlangan. Hazrati Sulton ziyoratgohi qishloqdan 18 kilometr uzoqlikda bo‘lib, dengiz sathidan 4646 metr balandlikda joylashgan[5].

Ko‘l qishlog‘ining mashhurligi shundaki, u O‘zbekistonning eng baland nuqtasi – Hazrati Sulton cho‘qqisi ostonasida joylashgan. Yaqin-yaqingacha yopiq bo‘lgan va oxirgi yillarda yana sayohatchilar uchun ochilgan bu cho‘qqiga chiquvchilar aynan Ko‘l qishloq orqali o‘tishadi.

Ushbu Ko‘l qishlog‘i yuqori ekoturistik resursga ega. Qishloq hududi juda go‘zal tabiat manzarasiga ega hisoblanadi. Qish faslida juda qalin qor yog‘adi. Bu faslda qishloqqa borish juda qiyin. Lekin qiyinchilikka arziydi.

Svtushar sharsharasi—[Hisor-Oloytog‘](#) tizimidagi [sharshara](#), [Hisor qo‘riqxonasi](#) hududidagi shu nomdagi kichik Svtushar daryosi bo‘yida joylashgan. Suv oqimining tushish balandligi 85 metr. Sharshara mahalliy [ekologik ekoturizmning](#) taniqli obyektlaridan biridir[5].



Svtushar sharsharasining yozgi va qishgi ko‘rinishi

Sharsharaning rasmiy nomi uni tashkil etuvchi suv oqimi nomidan kelib chiqqan, ammo mahalliy aholi uni ko‘pincha Svtushar sharsharasi deb o‘zgartiradilar, bu „Svtushar sharsharasi“ degan ma‘noni anglatadi. Ushbu tabiiy diqqatga sazovor joy suv



oqimining ko‘plab spreylaridan qor-oq uchun shunday nom oldi. Sharshara Suvtushar qishlog‘idan 8 km uzoqlikda joylashgan. Ma‘muriy jihatdan Hisor qo‘riqxonasining Miraki MFYsida joylashgan bo‘lib, uni muhofaza qilish boshqaruvi zimmasiga yuklatilgan. Suvtushar sharsharasi Hisor-Oloy yon bag‘irlaridan boshlanuvchi shu nomdagi kichik daryo oqimi kanalida hosil bo‘lgan. Dengiz sathidan 2100 m balandlikda joylashgan. Kaskad tipidagi sharsharalarga tegishli, ammo uning qirralari tor va deyarli vertikal tekislikda joylashgan. Suv tushishining umumiy balandligi 85 m. Suv oqimi tor qoyali kanyonga tushadi, uning yon bag‘irlari archa ya’ni mahalliy archa turlari bilan qoplangan. Suvtushar daryosi muzliklar bilan to‘yingan, shuning uchun tog‘larda qorning intensiv erishi paytida suv ayniqsa to‘la bo‘ladi. Bu vaqtda sharshara butunlay oq suv devoridek tusga kiradi[5].

Suvtushar sharsharasining go‘zalligi va qudrati hamisha estetik jihatdan ham, uning atrofida keng va chuqur daryolar yo‘qligi sababli ham odamlarning e’tiborini o‘ziga tortgan, shu bois katta suv massasi bu hududda alohida taassurot uyg‘otadi. Sharshara diqqatga sazovor sayyohlik maskanlari qatoriga kiradi, shuning uchun qo‘riqxonaga tashkil etilgandan keyin ham unga kirish cheklanmagan.

Shahrisabz shahri va tumanida turizm klasteri tashkil etishni va u yerda 3000 gektar maydonda **tog‘-chang‘i kurorti** qurilishi boshlangan. Xorijiy investorlar tomonidan Shahrisabz tumani G‘elon va Sarchashma qishloqlari orasida 3 ming gektarli tog‘-chang‘i majmuasi tashkil qilish boshlangan. Miraki qishlog‘i bo‘yicha ham master reja ishlab chiqilmoqda. Bu tumanning tarixi ham, tabiati ham diqqatga sazovor. Qolaversa, Shahrisabz shahri iqtisodiy hamkorlik tashkilotining “2024 yildagi turizm poytaxti”, deb e’lon qilingan. Shu bois u yerda turizmni rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar belgilandi. Birinchi galda Shahrisabz shahri va Shahrisabz tumanida turizm klasteri tashkil qilinadi. 33 kilometrli Hisorak – G‘elon va Hisorak – Sarchashma yo‘li kengaytirib, ta’mirlanadi. “Chiroqchi-Sho‘rquduq” avtomobil yo‘li yaxshilanib, Samarqanddan Shahrisabzga qatnov vaqti qisqaradi[5].

Shahrisabz tumanining tog‘li hududlari tog‘-chang‘i kurorti joylashuvi uning tabiati bunga mosligidan dalolat beradi. Loyihaning maqsadi xalqaro talablarga javob beradigan tog‘-chang‘i dam olish maskanini yaratish, sayyohlar oqimini oshirishdan iboratdir.

Yuqorida nomi keltirilgan Miraki qishlog‘i, Hisorak suv ombori, G‘elon qishlog‘i, Sarchashma qishlog‘i, Ko‘l qishlog‘i, Suvtushar sharsharasi, Tog‘-chang‘i majmuasida





turistlarning dam olishlari uchun sharoitlar yaratish, xususan, rekreatsiya, tabobat turizmi, faol tog‘ turizmi, agroturizm va sog‘lomlashtirish xizmatlarini ko‘rsatishni ta‘minlash ko‘zda tutilgan holda tegishli infratuzilma ob‘ektlari joylashtiriladi. Binobarin, hududda mehmonxona va villa tipidagi dala hovlilar bilan bir qatorda mehmon uylarini tashkil etish, paraplan va del‘taplan maydonlari, sanatoriya, dam olish uylari, turli sport jamoalari tayyorgarlik ko‘rishlariga imkon beruvchi yirik sport lagerlari faoliyati yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.11.2023 й ПҚ-376-сон "Қашқадарё вилоятининг тоғли-рекреацион худудларида замонавий хизмат кўрсатиш ва туризм объектларини барпо этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори
2. Nazarov M, Murodova D. "Qashqadaryo viloyati geografiyasi" fanidan o‘quv uslubiy majmua. Qarshi – 2021.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.- Т.: "ЎзМЭ нашриёти" 1-14 жилдлар. 2000-2006 йй.
4. Qashqadaryo viloyati Turizm boshqarmasi ma’lumotlari.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shahrisabz>

